

**O‘ZBEK AUDITORIYASI TALABALARIGA MO‘LJALLANGAN
DARSLIKLARDA INGLIZ TILI MEHNAT HAQIDAGI MAQOLLARNING TAHLILI**

(Muxammadiyeva Madinabonu Eshmaxmat qizi)
(O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2-kurs tayanch doktorant)
E-mail: madinabonumuxammadiyeva14@gmail.com
Tel: +998909013052

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21196639>

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda o‘zbek auditoriyasi talabalariga mo‘ljallangan ingliz tili dasturlari, darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarida mehnat mavzusiga oid ingliz maqollarining qo‘llanilish darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi o‘quv dasturlari hamda stilistika faniga tavsiya etilgan darsliklar o‘rganildi. Tahlil natijalari mehnatga oid maqollar ayrim darsliklarda lingvomadaniy va stilistik misol sifatida uchrashini, biroq ularni kommunikativ, pragmatik va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida tizimli o‘qitish mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi. Shuningdek, maqollarni o‘qitishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimini yaratish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: maqol, lingvomadaniyat, stilistika, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, ingliz tili ta’limi.

Аннотация

В данном исследовании анализируется уровень использования английских пословиц о труде в программах, учебниках и учебных пособиях по английскому языку, предназначенных для узбекской аудитории студентов. В ходе исследования были изучены учебные программы направления подготовки 60230100 – «Филология и обучение языкам», а также учебники, рекомендованные для дисциплины «Стилистика». Результаты анализа показали, что пословицы о труде представлены в основном как лингвокультурологические и стилистические примеры, однако механизм их систематического обучения как средства формирования коммуникативной, прагматической и межкультурной компетенций разработан недостаточно. Также обоснована необходимость создания специальной системы упражнений для обучения английским пословицам о труде.

Ключевые слова: пословица, лингвокультурология, стилстика, коммуникативная компетенция, прагматическая компетенция, межкультурная компетенция, обучение английскому языку.


Annotation

This study analyzes the use of English proverbs related to labor and work in English language curricula, textbooks, and teaching materials designed for Uzbek learners. The research examines the curriculum of the Bachelor's Degree Program in Philology and Language Teaching (60230100) as well as textbooks recommended for the Stylistics course. The findings reveal that work-related proverbs are presented mainly as linguistic, cultural, and stylistic examples, while a systematic mechanism for teaching them as a means of developing communicative, pragmatic, and intercultural competencies has not been sufficiently developed. The study also substantiates the need to design a special system of exercises for teaching English work-related proverbs in Uzbek classrooms.

Keywords: proverb, cultural linguistics, stylistics, communicative competence, pragmatic competence, intercultural competence, English language teaching.

Kirish. Ingliz tilini madaniyatga bog’lab o’rganish tilni oson va samarali o’rganishga yordam beradi. Ingliz tilidagi mehnat haqidagi maqollar talabalar uchun qiziqarli mavzu bo’lib, ularni o’z ona tilidagi maqollar bilan taqqoslab o’rganish ingliz xalqining turmush tarzi, ish faoliyati, kunlik vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqidagi bilim, ko’nikma va malakalarni oshirishda samarali usul hisoblanadi. Shu sababga ko’ra, biz o’zbek auditoriyasi talabalariga mo’ljallangan ingliz tili dasturlari, darsliklari va o’quv qo’llanmalarida ingliz tili mehnat haqidagi maqollardan foydalanilganlik darajasini tahlilga tortdik.

Asosiy qism. 60230100 - Filologiya va tillarni o’qitish bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablarida talabalar milliy qadriyatlar, an’analar, umuminsoniy qadriyatlar haqida o’z fikrini erkin gapirib bera olishi va ilmiy asosda bayon qilishi, milliy istiqlol g’oyasi haqidagi hayotiy mavzularda mustaqil fikrini tushuntira olishi kerakligi talab qilingan. Bundan tashqari kasbiy kompetensiyaga qo’yilgan talablarga ko’ra jahon



adabiyotiga oid bilimlarni egallash, ilmiy tadqiqot asoslari, sotsiolingvistika, tarjimashunoslik kabi dolzarb masalalarni yoritish, jahon xalqlari folklori, namunalaridan xabardor bo’lishi kerakligi ta’kidlangan.[1]

60230100 filologiya va tillarni o’qitish ta’lim yo’nalishida mavzuimiz yuzasidan o’rgatiladigan fan stilistika hisoblanadi. Stilistika fani majburiy fan hisoblanib, 7-semesterda 4-kurslar uchun o’tiladi va umumiy 120 soat ajratilgan. Shundan 48 soat auditoriya soati uchun 72 soat mustaqil ta’lim uchun ajratilgan.

Fanni mazmuni talabalarning shaxsiy fikrlarini turli xil usullar bilan yoritishning muayyan nutq sharoitiga mos yo’llarini aniqlash hamda tildagi his hayojonli holatlarni ifodalash uchun qo’llaniladigan leksik frazeologik birikmalarning ma’no va vazifalarini tahlil qilishdir, tildan faol foydalanish malakasi muloqotning ijtimoiy, milliy, psixologik tomonlarini hisobga olgan holda rivojlantirish.

Fanning vazifasi bo’lajak mutaxassisga ongli o’qishni o’rgatish usullarini yaxshiroq egallash imkonini berish, asarga yuzaki yondashishning oldini olish, badiiy matnni murakkab tarkibiy butunlik tarzida tushunishni o’rgatish. Tafakkur va hissiyotni sezish, umumiy g’oya va ta’sirchanlikni kuchaytirish, estetik did, badiiy adabiyotni o’rganishni yuksak madaniyatini yaratish imkonini berish.

Fanda shakllanadigan kompetensiyalar:

Uslubiy vositalarni to’g’ri qo’llash: Talabalar stilistik vositalarni (metafora, aliteratsiya va boshqalar) matnlarda maqsadga muvofiq ishlatish ko’nikmasiga ega bo’ladilar.

Matnni chuqur tahlil qilish: Turli uslublardagi matnlarni tahlil qilish orqali talabalar, matnni o’zining maqsadi va auditoriyasiga qarab qanday shakllantirishni o’rganadilar.

Stilistik farqlarni aniqlash: Talabalar ilmiy, adabiy, publitsistik va boshqa uslublar o’rtasidagi farqlarni yaxshi tushunadilar.

Ma’ruza uchun 12 ta mavzu, seminar uchun ham 12 ta mavzu ajratilgan. Asosiy adabiyotlar uchun 5 ta kitob olingan. Qo’shimcha adabiyotlarga 3ta kitob va 8 ta internet saytlari tavsiya etilgan.

No	Seminar mavzular	Soat
1	Stilistika va matn tahlili kursining dolzarbligi va vazifalari	2 soat
2	Stilistika turlari va stilistik tahlil metodlari	2 soat
3	Uslubiy leksika tarkibi	2 soat
4	Og’zaki so’zlarning stilistik xususiyatlari va turlari	2 soat
5	Funksional uslub tushunchasi	2 soat
6	Publitsistik uslub xususiyatlari va vazifalari	2 soat
7	Leksik-stilistik vositalari	2 soat
8	Stilistik vositalar	2 soat
9	Leksik-sintaktik stilistik vositalari	2 soat
10	Sintaktik stilistik vositalar	2 soat
11	Og’zaki nutqda stilistik vositalar	2 soat
12	Matn tahlili fanining vazifasi	2 soat

Bizni ilmiy ishimiz stilistika fan doirasida olib borilgani sababli stilistikadan o’tiladigan darslikni tahlil qilishga qaror qildik. O’rganilayotgan til nazariy aspektlari fanining stilistika moduli uchun quyidagi asosiy adabiyotlar tavsiya etiladi: - Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural linguistics Tashkent. 2019 . Ushbu darslik 126 sahifa, nazariy ma’lumotlar berilgan 6 ta bo’lim, glossari, foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan.[2]

Darslikni tahlilini boshlaydigan bo’lsak, darslikni 1.5- bo’limining sarlavhasi madaniy qadr-qimmat va uning so’zda ifodalanishi deb nomlangan. 15-sahifasida har bir madaniyatning o’z qadr qimmatiga ega tushunchalari haqida gap boradi va bu qadr qimmat maqollarda yorqin namoyon bo’lishini quyidagi misollar bilan aytib o’tgan: “*Arslon izidan qaytmas, yigit so’zidan*”, “*Yigitni bir so’zlik bezar*”, “*Er yigitning so’zi o’lguncha – o’zi o’lgani yaxshi*”, “*Er so’zli yigit kun yuzli yigit*”. Bu maqollar o’zbek madaniyati an’analariida erkak oila boshlig’i va jamiyat yetakchisi ekanligini ko’rsatadi . Ingliz tilida esa bunday ma’noga ega faqat bitta maqol berilgan: “*An Englishman’s word is as good as his bond*”. – (tarjimas: Ingliz er yigitining so’zi uning qarzi bilan teng).[3,4]

Darslikning 16- sahifasida ingliz va o’zbek millatlari xushmuomalalikni va hurmatni qadrlashi haqida so’z boradi va shu mavzuga oid maqollar misol tariqasida keltirib o’tilgan. Biz faqat ingliz tilidagi mehnatga oid maqollarni tanladik.

No	Maqollar	Tarjima
1	Do as you would be done by;	O’zingga ravo ko’rmagan narsani boshqaga ham ravo ko’rma

2	You can catch more flies with honey than with vinegar;	Shirin soʻz bilan ilon inidan chiqar.
3	Handsome is as handsome does	Yaxshi xulq – husnning ziynati.

Darslikning 4.4 boʻlimi “Maqol va matallar madaniy belgiga ega boʻlgan birliklar sifatida” deb nomlangan sarlavha ostida berilgan boʻlib, boʻlimda turli xil mavzulardagi maqollar keltirib oʻtilgan. Darslikning 75-sahifasida maqollar millatning dunyoqarashini, turmush tarzini, donishmandligi, tarixi, madaniyatini ifodalaydigan eng muhim manba ekanligi taʼkidlangan va quyidagicha misollar berilgan.

	Maqollar	Tarjima
	One cannot run with the hare and hunt with the hounds	Ikki tomonga birdek xizmat qilib b boʻlmaydi
	A penny saved is a penny earned;	Tejangan pul — topilgan pul
	Business is business	biznes — bu biznes
	If a job is worth doing, it is worth doing well	yaxshi qilish kerak

79-betda ingliz millati har doim sanoat va savdo rivojlangan mamlakat boʻlib kelganligi maqollarda ham oʻz aksini topgan deyiladi. Ingliz tilida iqtisod va biznesni aks ettiruvchi juda koʻp maqollar misol tariqasida berilgan.

No	Maqollar	Tarjima
11	Business before pleasure;	Avval ish, keyin rohat
22	Business is like a car, it will not run by itself except downhill;	Biznes mashinaga oʻxshaydi: oʻzi yurmaydi, faqat pastga qarab ketadi
33	Business neglected is business lost;	Eʼtiborsiz qoldirilgan ish — yoʻqotilgan ish
44	One business begets another;	Bir ish boshqasini tugʻdiradi
55	Business is the salt of life;	Ish — hayotning tuzi
66	First come, first served;	Kim oldin kelsa, oʻsha birinchi xizmat oladi
77	A bargain is a bargain;	Kelishuv — kelishuv.

Yuqorida tahlil qilingan fan dastur va darsligimizdan kelib chiqib ularda qoʻyilgan xato kamchiliklarni yoritib oʻtmoqchimiz. Avvalo, shuni aytishimiz kerakki, Stilistika fanining oʻquv dasturlarida maqol va matallar alohida mavzu sifatida kiritilmagan. Ular faqat ayrim stilistik vositalar yoki matn tahlili jarayonida misol sifatida uchraydi.

Tahlil qilingan darsliklarda mehnatga oid maqollar mavjud boʻlsa-da, ular tartibli ravishda tanlanmagan va maʼlum bir tematik guruh asosida berilmagan

Ko’pgina darsliklarda maqollar nazariy misol sifatida keltiriladi, ammo ularni o’zlashtirishga qaratilgan kommunikativ, diskursiv va interfaol mashqlar deyarli uchramaydi.

Ingliz va o’zbek maqollarining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga yetarli e’tibor qaratilmagan. Aksariyat hollarda faqat tarjima yoki ekvivalent berish bilan cheklanilgan.

Darsliklarda maqollarni o’rganish orqali pragmatik, sotsiolingvistik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari ko’rsatilmagan.

Maqollarning real kommunikativ vaziyatlarda, dialoglarda, akademik yoki kasbiy muloqotda qanday qo’llanishi haqida yetarli ma’lumot berilmagan.

Darsliklarda maqollar ko’pincha umumiy stilistik birlik sifatida talqin qilinadi, ammo o’zbek talabalarida uchraydigan lingvistik va madaniy qiyinchiliklar hisobga olinmaydi.

Xulosa. Tahlil qilingan dastur va darsliklarda ingliz tilidagi maqollar, jumladan mehnat mavzusiga oid maqollar uchrasada, ular asosan stilistik yoki lingvomadaniy misol sifatida berilgan. Maqollarni o’zbek auditoriyasi talabalarida kommunikativ, pragmatik va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida tizimli o’qitish mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli mehnat mavzusiga oid ingliz maqollarini o’qitishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimini yaratish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. 60230100 – Filologiya va tillarni o’qitish (tillar bo’yicha) bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari. – Toshkent, 2024.
2. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural linguistics .Tashkent. 2019
3. Karomatova K.M., Karomatov H.S. Proverbs. Maqollar. Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.
4. To’ra Mirzayev, Asqar Musoqulov, Bahodir Sarimsoqov., *O’zbek xalq maqollari*. -T: Sharq, 2022. -512b